

ALISHER NAVOIYNING “XAMSA” SIDA ZAMONAVIY  
TEKNOLOGIYALARNING TASVIRLARI

*Valijon Maxsudov Gafurjanovich\**

*TTA dotsenti,*

*+998946501284*

*Oqmatova Mushtariy Farhodovna\**

*TTA talabasi*

*+998947776177*

**Annotatsiya:** Maqolada Alisher Navoiy ijodida texnologiya va fizik hodisa va jarayonlarning tasviri va tasavvurining mohirona ifodasi borasida fikr yuritiladi.

**Аннотация:** В статье творчество Алишер Навои рассматривается как умелое выражение образа и воображения техники и физических явлений и процессов.

**Abstract:** In the article, Alisher Navoi's work is considered as a skillful expression of the image and imagination of technology and physical phenomena and processes.

**Kalit soʻzlar:** videochaqiruv, IMO, innovatsiya, robot, konditsioner.

**Ключевые слова:** видеозвонок, IMO, инновация, робот, кондиционер.

**Keywords:** video call, IMO, innovation, robot, air conditioning

Alisher Navoiy oʻzbek milliy madaniyatli, adabiyotining yirik vakili boʻlishi bilan birgalikda, u qomusiy ijodkor hamdir. Chunki biror soha yoʻqki, bu mutafakkir u sohada qalam tebratmagan boʻlsin.

Masalan, “ Tarixi muluki Ajam” (tarix), “ Tarixi anbiyo va hukamo” (tarjima), “ Vaqfiya” (irrigatsiya, vaqf yerlarni oʻzlashtirish), “Majolis uh-nafois” (adabiyotshunoslik), “ Muhokamat ul-lugʻatayn” (tilshunoslik), “Munshaot” (Davlat tilida ish yuritish), “Sabʻatu abhur” (lugʻatshunoslik), “Siroj ul-muslimin” (diniy), “Risolayi tir andoxtan” ( oʻq otish haqida).

Koʻrinadiki, Alisher Navoiy qomusiy olim sifatida hayotning barcha jabhalarida ijod qilgan, qalam tebratgan.

Ayniqsa, “ Xamsa”ning koʻplab dostonlarida Alisher Navoiy fantaziyasining naqadar kuchli boʻlganligini koʻrish mumkin.

Masalan, “Xamsa”ning mashhur “ Farhod va Shirin” dostonini bilmagan yoki qisman boʻlsa ham oʻqimagan oʻzbek boʻlmasa kerak.

Mazkur dostonida Chin haqoni oʻgʻli Farhod uchun 4 faslga moslab 4 ta qasr qurdiradi. Qasrlardagi 40 ta xonadan bir xona, yaʼni 40-xonaga kirish taʼqiqlanadi.

Farhod shu hujraning ham kalitini topib ochadi va “Oynayi jahonnoma”ni topadi. Ammo undagi tilsimlarni ochish uchun bir necha shartlarni bajaradi. Masalan, Axriman devni, ajdahoni yengadi, Suqrotning savollariga javob berib, xazinani qoʻlga kiritadi. Shunda Oynada Xitoy mamlakatida turib Arman yurtini koʻradi. Unda Shirinni koʻrib, sevib qoladi.

Bugun biz uchun dunyoning bir chekkasida turib, dunyoning ikkinchi bir qitʼasida yashayotgan yaqinlarimiz, doʻstlarimiz bilan muloqat qilish oddiy bir hol, albatta .

Internet orqali videochaqiruv yoki IMO orqali ular bilan bemaolol ko‘rishib, gaplashamiz.

Ammo XV asrda bugungi texnika va fizik jarayonlarni bu qadar aniqlik bilan tasvirlashda insonni hayratga soladi.

To‘g‘ri, Alisher Navoiy fan va ilm rivoji uchun homiyliklar qilgan, bu sohalarni qo‘llab-quvvatlagan. Ammo shoirda tasavurning bu qadar keng bo‘lganligiga qoyil qolasiz.

Alisher Navoiy innovatsiyalari, ya‘ni asarlaridagi bugungi kun innovatsiyasi berilishining yana bir misoli “Farhod va Shirin” dostonida:

G‘aroyib ko‘p Huvaydo bo‘lg‘usidir,  
Bas anga shakl paydo bo‘lg‘usidir.  
Ko‘rinib har zamone ko‘zga bir shakl,  
Ko‘z olg‘och bo‘lg‘uvchidir o‘zga bir shakl.

1928 yil Toshkentda B. Grabovskiy va I. Belyayevskiylar elektr nur yordamida harakat qilayotgan tasviri bir joydan uzatiladigan va qabul qilinayotgan apparat yaratganlar.

Ekranda ham kadrlar bir soniyada 24 marta almashadi va jonli tasvir ko‘rinadi. “Farhod va Shirin” dostonida buni “Oynayi jahon” deb ta‘riflaydi shoir.

Yana shu dostonda robot haqida shunday tasvirlar beriladi:

Bo‘lur darvoza ichra oshkora temir jismiki paykar aro,  
Erur odamg‘a manandu, mushobih, ilgida temirdin yoy qilib zix.  
Va lekin ushbu paykar roy to farq,  
Bo‘lib o‘tdik temir o‘rchin aro g‘arq.

Ma‘nosi: u odamga o‘xshaydi, qo‘lida o‘tkir o‘qli temir yoy ushlab olgan. Boshidan oyog‘igacha temir qoplangan va ichidan yonib turardi.

Yoki konditsioner haqida:

Ki har sori lavha erur tabiya,  
Birida yel-u, birida o‘t tamiya.

Ya‘ni chohning ikki yoniga yaxshilab qaralsa, birida o‘t, ikkinchisiga hova deb yozib qo‘yilgan.

Bu kabi matematik aniqlik bilan bugungi kun texnologiyalarni ta‘riflash Alisher Navoiyning nechog‘li teran fikrlashini ko‘rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh. Sariyev. Adabiyot qo‘llanma. T-2016, bet-181